

JAMIYAT VA OILALARDA PSIXOLOGIYANING O'RNI.

Sultanova Dilafro'z Azimboy qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida isiqomat qiluvchi erkin ijodkor.***Kirish**

Psixologiya -inson ruhiyati va yo'naltirishda muhimbo'g'in hisoblanadi. Har bir o'smir,oila qurayotgan yosh kasbiy mahorati sust tadbirkor yoki rahbar albatta psixologik bilim va ko'nikmalar ila o'zligini anglashi zarur. Agarda har bir inson o'zligini anglamasa-unada uning hayoti, barqaror o'sib boruvchi daromad manbayi, oilasida birdamlik, jamiyat hayotida o'z o'rne bo'lmadi.

Bu o'z navbatida barqaror jivojlanish sikli va hayot balansiga salbiy tasir ko'rsatadi.

1. Qalb kasbini tanlay olmaslik.

Yangi rivojlanayotgan O'zbekistonda hamon ota-onalar farzandlariga kasb tanlamoqda. Bu ayrim salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda:

1.1.Bolaning o'z kasbini sevmasligi va o'z sohasini yetuk egallamasligi :

O'smir yoshdagi farzandlar kelajagi va yaxshi hayotini ta'min qilish yoki ota va ona kasbiga davomchi bo'lish uchun bosim o'tkazish va majburiy tarzda vaqtni belgilash bola qiziqishlarini so'ndiradi va tengdoshlaridan uzilish va jizzaki fel atvor keltirib chiqaradi.

1.2.Faqat daromad uchun ishlash:

Bu o'z o'rnida navbatdan tashqari qo'shimcha ish olish, charchoq, yuqori lavozim uchun soxtakashlik va jamiyatning ayrim bo'g'inlarida karrupsiya va manapoliyaga ham sabab bo'ladi.

1.3. Jamiyat va inson modulining bir biridan uzoqlashishi:

O'z istaklarini boshqara olmagan inson,moddiyat va asliyat o'rtasida dasturlangan axborot kabi harakatlanadi. Milliy o'zlik va insoniy qadiryatlar yuzaki omil darajasiga tushib qoladi.

1.4. Biror soha yoki kasbni puhta egallay olmaslik:

Yetuk kadr va masul rahbar bo'la olishga ishonmaslik. O'z -o'zini kamsitish, hayotidan norozi kayfiyatda -ishni oxiriga yetkaza olmaslik yoki dangasalik tufayli boshqalar mehnatidan javobsiz va ruhsatsiz foydalanishga urinadi.

1.5. Jamiyat va oilada ma'suliyat olishdan qochish :

O'ziga ishonmaslik,oilada mas'ulyat va intizomni saqlashga boshqalar masul deb hisoblashi. Jamiyat menga berishi kerak degan tamoilda maqsadsiz boqimandaga aylanadi.

2.Jamiyat va kasbiy mahoratning psixologiya tasirida mukammal kadrqa aylantirilishi:

2.1. Kasbiy ong.

O'ziga ishonch -har bir ishning muvaffaqiyati kalitidir. Inson o'ziga, qilayotgan ishiga va jamiyatda foyda keltirayotganiga ishonishi va o'z qilayotgan ishi yoki kasbining javobgarligini to'liq olishi kerak.

2.2 . Munosabatlar psixologiyasi:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Har bir jamiyatda uyushish ya'ni birlashish va jamoa bo'lib ,ishlash tizimi mavjud . Bu o'z navbatida ichki men va kasbiy menning shakillanishiga olib keladi. Ularni birlashtiradigan omil bu - ruhiyatdir.

Inson doimo o'qib izlanishi zarur va tetik samasenska bilan harakatlanishi muhim. Va bu o'z navbatida natijalar yuqori o'sish bosqichiga chiqishi va maqsadli yo'nalish olishida va kelajakda lider shaxsga aylanishiga zamin yaratadi.

3. Inson shaxsiyati va ruhiyatini himoya qilish :

3.1. Negativlar:

Har bir sohada ,oilada yoki malum bir kishilik qatlamida insonlar dunyoqarashi sayoz yoki ichki meni to'g'r shakillanmagan insonlar tarafidan beriluvchi past baho , noo'rin kamsitilish, ichki menda yuzaga keluvchi qarama -qarshi fikrlar yoki emotsiyanal kuchli hissiyotlar shaxsni movoffaqiyatdan to'sib qo'yadi. Agar insonlar o'z -o'zini va yoki xato kamchiliklarini vaqtida tan ololsa bu o'z navbatida kishilik jamiyatida barqarorlikka tezda yetish imkonini beradi.

3.2. Trammalar va neyronlarda psihologiya:

Trammalar bu- bolalikda olingan ruhiy zarbalardir. Ular qobilyatlarni to'silishiga va buzg'unchi tarbiya shakillanishiga ya'ni qusurli tarbiya va urushqoq fe'l atvor shakillanishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida markaziy asab tizimida buzilishlar hafini keltirib chiqaradi. Va yana oldinga intilish hissidan qaytarib ,yengil yelpi hayot tarzi yoki tez va qing'ir yo'l bilan bo'lsada nimagadir erishish istagini tezlashtiradi yoki atrofdagilarni eshitmasdan o'z bilganini maqullash va shaxsni beqadrlantiruvchi hudbinlikni sezmaslikka sabab bo'ladi. > Dilafrö'z Sultanova: Bu esa oxir oqibat shaxsni yolg'izlanishiga olib keladi.

4. Vaqtni tejashda psihologik ong:

4.1. Maqsadga erishishdagi ichki hohish.

Inson majburan qilgan ishida ortiqcha vaqt va energiya sarf qiladi . Agar inson nimanidir astoydil hohlarsa yuqori ong va orqa ong unga tezda ma'lumotlar bazasini taminlaydi va o'z navbatida yechimlarga to'la imkoniyatlar va rejalar tuzishga yordam beradi.

4.2. Istak va to'g'rilik:

Psihologiya insonni anglash yo'naltirishga qaratilgan ilmlar jamlammasidir . U to'g'ri rivojlana olish va o'zlikni haqqoniy va qo'rquvlarini yengan holda oshkora va boricha yuzaga chiqara oluvchi -yo'nalishdir.

4.3. Nafs va ruhiyat:

Inson istaklari chegara bilmaydi . Lekin inson ko'nikkan hayot tarzi va o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi uni istaklardan to'sadi. Haddan ortiq ichki hohishlar ruhiyatni zaiflashuviga va barqaror o'sib rivojlanishga salbiy tasir o'tkazadi.

5. Loqaydlik va ma'naviyat;

5.1. Loqaydlik:

Beparvolik bu turli haf-hatarlar ortishiga ,katta daromadda firibgarlikka uchrab ayrilishga, oliada munosabatlar sovushiga sabab bo'ladi.

5.2. Komillik;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Komil inson bu- yashashdan maqsadi , yurti oldida masuliyati , ham aqlan ham jismonan yetuk shaxsga aylanish .

5.3. Hayotni sevis;

O'zini sevmagan inson na kasbini ,na oilasini na jamiyatni sevadi. O'zligini anglagan va qayoqqa qarab ketayotganini bilgan inson albatta baxtli bo'ladi.

6.Xulosa:

Inson bebaho hilqat. U aynan shu bebaholigini namoyon qila olsagina hayotini butkul o'zgartira oladi . O'zing o'zgarmasang olam o'zgarmas. O'zgarish uchun:

- O'z ustida tinmay ishlash.
- O'ziga bo'lgan ishonchni harakat bilan o'stirish.
- Kitob o'qiish va foydali odatlarni shakillantirish.
- O'zini -o'zi rag'batlanirish.

O'z -o'ziga mativatsiya berishni o'rganish zarur. O'ziga ishonga, sof fikrli, maqsadi aniq insonlar soni ko'paygani sari jamiyat va davlat yuksalib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Badiy asarlar. Axmoqlargina 8 soat uxlaydi. Rahbar psixalogiyasi. Lol .
2. Internet maqolalar.
3. Ommaviy axborot vositalari .
- 4 Internet hizmatlari.

